

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FUQAROLIK

Kazakbaeva Nigora Paraxat qizi

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi Shomanay tumani yuridik xizmat
ko'rsatish bo'limi bosh mutaxassisi*

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasida fuqarolik shaxsning davlat bilan o'zaro huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi yig'indisida ifodalanadigan hamda inson qadr-qimmatini, asosiy huquqlari va erkinliklarini e'tirof etish hamda hurmat qilishga asoslanadigan doimiy siyosiy-huquqiy aloqasini belgilaydi.*

Kalit so'zlar: *shaxs, fuqaro, huquq, erkinlik, hurmat.*

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik masalalari O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 13-martdagi O'RBQ-610-son "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida" Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi quyidagi hollarda olinadi.

- tug'ilganlik bo'yicha;
- bola farzandlikka olinganda;
- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilish va uni tiklash natijasida.
- O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida va [Qonunda](#) nazarda tutilgan boshqa asoslarga ko'ra ham olinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining butun hududi uchun yagona fuqarolik o'rnatiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasining fuqarosi ayni bir vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarosi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi, u qanday asoslarda olinganligidan qat'i nazar, hamma uchun tengdir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. O'zbekiston Respublikasida har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga egadir. Hech kim O'zbekiston Respublikasining fuqaroligidan mahrum qilinishi, bundan ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno, yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni O'zbekiston Respublikasi hududida hamda uning hududidan tashqarida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonuni 8 ta bo'lim, 45 ta moddadan iborat bo'lgan. Yangi tahrirdagi qonun esa 10 ta bo'lim, 58 ta moddani o'z ichiga qamrab olgan. Ko'rinadiki, yangi qonunga qator moddalar qo'shilib, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar fuqarolarimizning,

xususan, mamlakatimizda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquq va manfaatlarini to'laqonli va yanada samarali himoya qilishga qaratilganligi bilan muhimdir. Ta'kidlash joizki, mazkur qonunda, avvalo, fuqarolik institutining mazmun-mohiyati, uning huquqni qo'llash amaliyotidagi asosiy tushunchalari aniq belgilab berildi.

Ikkinchidan, endilikda qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga mansublik tushunchasi o'zgardi, uning yangi talqinida aholining yanada kengroq qatlami qamrab olindi.

Uchinchidan va eng muhim jihatlaridan biri, mamlakatimizda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasining fuqaroligini tan olish instituti joriy etildi. Ya'ni, mamlakatimiz hududiga 1995 yil 1 yanvarga qadar doimiy yashash uchun kelgan shaxslarning fuqaroligini tan olish O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan 49 228 nafar fuqaroligi bo'lmagan hamyurtimizga (50,6%) fuqarolik berilishi uchun asos bo'ldi. Bunday fuqarolar Toshkent viloyatida – 8 975, Surxondaryoda – 8 837, Qashqadaryoda – 6 576, Farg'onada – 6 122, Sirdaryoda – 4 834, Toshkent shahrida – 4 668, Andijonda – 4 086, Namanganda – 1 396, Buxoroda – 794, Qoraqalpog'iston Respublikasida – 781, Jizzaxda – 745, Samarqandda – 682, Navoiyda – 368 va Xorazmda 364 nafarni tashkil etadi.

To'rtinchidan, tug'ilgan joyi va ota-onasining fuqaroligi bo'yicha xorijiy davlat fuqarosi hisoblangan bolalarni O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilish tartibi belgilanib, liberallashtirildi. Shuningdek, fuqarolik sohasida bola huquqlari mustahkamlandi.

Beshinchidan, yangi tahrirdagi qonunda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

Umumiy tartibda – O'zbekiston Respublikasi hududida uzluksiz besh yil yashagan xorijiy davlat fuqarolari (xorijiy davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo'lsa), shuningdek, yashash guvohnomasiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etiladi. Bunda fuqarodan xorijiy davlat fuqaroligidan chiqishni rasmiylashtirgan bo'lishi, qonuniy tirikchilik manbaining mavjudligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonun hujjatlariga rioya qilishni zimmasiga olishi, davlat tilini muloqot uchun etarli darajada bilishi talab etiladi;

Soddalashtirilgan tartibda – xorijiy davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs hisoblangan vatandoshlarga taqdim etiladi. Shu o'rinda ma'lumot uchun aytish joiz: "Vatandosh" — O'zbekiston Respublikasida tug'ilgan yoki yashagan, O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmagan, O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan va to'g'ri shajara bo'yicha ajdodlari O'zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxs hamda uning to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlaridir;

**"INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION:
WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"**

Alohida tartibda – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan beriladi (amaldagi qonunda bu tartib ko'zda tutilmagan);

Oltinchidan, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini yo'qotish asoslari beshdan oltiga ko'paydi, ulardan birining shartlari o'zgardi (O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi yo'qotilishiga zamin bo'ladigan uzrli sabablarsiz konsullik hisobiga turmaslik muddati uch yildan etti yilga uzaytirildi).

Bulardan tashqari, fuqarolikka qabul qilish, uni tiklash yoki undan chiqish chog'ida hujjatlarni tayyorlash tartibi, fuqarolik masalalariga oid materiallarni ko'rib chiqish muddatlari, fuqarolik masalalari bo'yicha materiallarni ko'rib chiqishni tugatish tartibining aniq asoslari qonunning o'zida belgilab berildiki, bu ham alohida e'tirofga molik jihat.

**Shumanoy tumani adliya bo'limi YXKM bosh yuriskonsulti
N.P.Kazakbaeva**

